



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING MANTIQIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGINI MAQSADGA INTILISH, REJALASHTIRISH, TAHLIL QILISH, REFLEKSIYALASH JARAYONLARI

Boltayeva Guzal Tolibovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish samaradorligini maqsadga intilish, rejalashtirish, tahlil qilish, refleksiya jarayonlarining integrativ xususiyatlarini frontal yaxlitlashda refleksiya jarayonlari yetakchi omil hisoblanadi. Refleksiya inson o'z-o'zini anglashi, uning o'z harakatlari va amallari asoslarini anglashini tavsiflaydi. Refleksiya – inson tafakkurining tamoyili bo'lib, uni shaxsiy shakllari va shartlarini anglashga yo'naltiradi, tahlilning o'zini ko'rib chiqish, uning mazmuni va bilish metodlarini tanqidiy tahlil qilish, inson ma'naviy olamining o'ziga xosligini va ichki tuzilishini ochib beruvchi o'z-o'zini bilish faoliyati sanaladi.*

Kalit so'zlar. *Individual tasavvur, faol fikrlash, mustaqil fikrlash, ijodiy fikrlash, intellektual, emotsional, tartibga soluvchi.*

Mantiqiy fikrlash ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqilligi, bilim faoliyati va qiziqishlari rivojlanadi. Mantiqiy fikrlaydigan darslarning mazmuni, o'qituvchining o'qitish faoliyati o'quvchining shaxsiga bag'ishlangan, shuning uchun ular qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishga, o'quvchilarning fikrlash jarayonlarini faollashtirishga yordam beradi va ularni turli fanlarga oid bilimlarni umumlashtirishga undaydi. Individual tasavvur va shaxsiy fikrlar ob'ektiv ahamiyat kasb etar ekan, bilimlar turli nuqtai nazarlarning to'qnashuvi, bahs-munozara, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat natijasida o'zlashtiriladi.

Yuqoridagi tahlillarga asoslangan holda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish samaradorligi o'z-o'zini kognitiv va kreativ boshqarish, maqsadga intilish, rejalashtirish, tahlil qilish, refleksiya jarayonlarining integrativ xususiyatlarini frontal yaxlitlash asosida takomillashtirilgan.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish samaradorligi vertikal pedagogik nazorat darslarini hamkorlikda o'qitish jarayoni bilan gorizontallashuvini bosqichma-bosqich ta'minlash asosida takomillashtirilgan. Vertikal pedagogik nazorat darslarini hamkorlikda o'qitish jarayoni bilan gorizontallashuvini bosqichma-bosqich ta'minlashda nazorat aynan innovatsion boshqaruv va nazoratni ko'zda tutadi. Ta'lim tizimida innovatsion boshqaruvni tashkil qilish faoliyat a'zolari o'rtasidagi aniq kim, qachon nimani bajarishi to'g'risida “gorizontall” va “vertikal” vazifalar, huquq, burch, majburiyatlari taqsimotining tashkiliy tarkibini tushunamiz.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Vertikal pedagogik nazorat darslarini hamkorlikda o'qitish jarayoni bilan gorizontal integrallashuvini bosqichma-bosqich ta'minlashda tashkiliy tuzilmaning tarkibiy qismlari bo'lib quyidagilar sanaladi:

bo'g'inlar (bo'linmalar, xizmatlar va alohida lavozimlar) jamlanmasi;

bo'g'inlar egallaydigan ierarxiya darajalari (tashkilot elementlarining birgalikda bo'ysunishlari);

bo'g'inlar orasidagi formal vertikal (chiziqli va funksional) va gorizontal aloqalar.

Vertikal pedagogik nazorat darslari boshqaruvning kibernetik sikli mazmunida amalag oshirilayotgan jarayonlarning umumiy nazorat qilinishiga urg'u beradi, bunda u tashkilotning shunga o'xshash ko'p sonli vertikal va gorizontal tartibga solish konturlaridan tashkil topishida kelib chiqadi.

Dj.Per, X.Devidlarning fikriga ko'ra, nazoratning uchta – yillik rejalarni nazorat qilish, rentabellik nazorati, strategik nazorat kabi turlaridan foydalaniladi. Nazorat tizimi samarali bo'lishi uchun u bir qator talablarni qondirishi lozim. Nazorat tizimi dan kelib tushayotgan axborotlarga eng qat'iy talablar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- strategiyani to'g'rilab borish bo'yicha zaruriy qarorlarni qabul qilish uchun axborotlar o'z vaqtida kelib tushishi kerak;

- nazorat qilinadigan jarayonlarning holatini mos ravishda aks ettiradigan axborotlar to'g'ri ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak;

- axborotlarda ularning olinganlik vaqti va unga taalluqli bo'lgan vaqt aniq ko'rsatilishi zarur.

Nazoratning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- nimani va qanday ko'rsatkichlar bo'yicha tekshirishni aniqlash;
- qabul qilingan standartlar, me'yorlar yoki boshqa ko'rsatkichlarga muvofiq nazorat qilinuvchi ob'ekt holatini baholashni amalga oshirish;
- o'tkazilgan baholash natijasida aniqlangan sabablarni aniqlash;
- agar zarur va mumkin bo'lsa tuzatishni amalga oshirish.

Shaxs boshqa insonlar samarali hamkorlikdagina amaliy faoliyat yuritadi. Umuman insonning amaliyotdagi faoliyati (harakati, xulq-atvori) sub'ekt-ob'ekt va sub'ekt-sub'ekt munosabatlari birligida namoyon bo'ladi. Bu yerda sub'ekt-ob'ekt munosabatlari insonning tashqi muhitni sun'iy qurol va vositalar yordamida o'zlashtirishini anglatrsa, sub'ekt-sub'ekt munosabatlari esa ushbu faoliyat jarayonida odamlar o'rtasidagi muloqatni ifodalaydi.

Muloqotning eng yaxshi usuli hamkorlikdir. «Hamkorlik» avvalambor insonlarga, so'ngra avvalgiga qaraganda yuqori natijaga olishga qaratilgan bo'ladi. Talaba guruhdagilar bilan "teng ravishda" vazifalarni shakllantirishda ishtirok etadi. Taktikani belgilash va uni amalga oshirish avvalambor guruhga tegishli bo'ladi, talabaning vazifasi esa – guruhdagilarning tashabbuskorligi va manfaatdorligini qo'llab-quvvatlab turish, biroq ularni haddan tashqari nazorat qilmaslikdan iborat.

Samarali hamkorlikda kombinatsiyalashgan mehnat bilan shug'ullanuvchi ishlovchilar o'rtasidagi aloqalarning murakkablashib borishi bilan boshqaruv mustaqil funksiyaga



ajraladi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqot ishida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish samaradorligi o'z-o'zini kognitiv va kreativ boshqarish, maqsadga intilish, rejalashtirish, tahlil qilish, refleksiylash jarayonlarining integrativ xususiyatlarini frontal yaxlitlash hamda vertikal pedagogik nazorat darslarini hamkorlikda o'qitish jarayoni bilan gorizontallashuvini bosqichma-bosqich ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lisova G.G., Ashtrafziyanov A.I., Nikiforova T.A., Prilezhayeva L.G., Saliyev N.N. Uslubiy maqolalar to'plami "Integratsiya rivojlanuvchi ta'lim uchun ". ANO SOSH "Premier". 2014 yil
2. Abdullayeva B.S. Akademik litsey o'quvchilarining matematik tafakkurlarini rivojlantirish (umumlashtiruvchi darslar misolida): Dis. ... ped. fan. nom. – Toshkent: TDPU, 2002. – 146 b.
3. Toshpulatova SH.O. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. Ped. fan. ... (PhD) diss. avtoref. – Samarqand. 2019. 14-20 b.
4. Yusupova SH.M. Ona tilini integral o'qitish sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish: Dis. ... ped. fan. dok. – X., 2010. – 17 b.
5. Toshpulatova D.K. "The role of mental arithmetic in improving mathematical literacy in primary school". International Scientific Journal Theoretical & Applied Science Published 18.12.2019.
6. Toshpulatova D.K. "The role of mental arifmetics and thinking skills in mathematics lessons of primary schools". International Engineering Journal For Research & Development – 2020.

